

"MEHROBDAN CHAYON" ASARIDAGI OBRAZLAR TALQINI

Qo'ziboyeva Xushnoza

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi uch asosiy obraz — Solih mahdum, Anvar va Ranoning badiiy talqini yoritildi. Asarda muallif jamiyatning ma’naviy inqirozi, ilm va jaholat to‘qnashuvi, insoniylik va vijdon tushunchalarini obrazlar qiyofasida mahorat bilan aks ettiradi. Tadqiqot davomida Solih mahdumning ikkiyuzlamachi tabiatiga, Anvarning ilmi, ma’rifatparvar va adolatni kuylovchi xarakteriga hamda Ranoning pokiza, irodali, lekin taqdir zarbalariga duchor bo‘lgan ayol sifatidagi ruhiy dunyosiga e’tibor qaratildi. Maqolada ushbu obrazlar orqali romanning asosiy g‘oyasi — ma’rifat va jaholat o‘rtasidagi kurash ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Mehrobdan chayon, Abdulla Qodiriy, Solih mahdum, Anvar, Rano, obraz tahlili, ma’rifat va jaholat, jamiyat, badiiy tahlil, ilm.

Kirish.

Mehrobdan chayon— o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman mavzui XIX asr hodisalari — „xon zamonlari“ davridagi o‘zboshimchaliklarni ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan.

Asarda obrazlar talqini davriga mos tarzda, o'sha muhitni kengroq ochib berishga hizmat qilgan. Romanda muallif yengil hazil-mutoyiba, kulgi-yumor, piching, kinoya-kesatiq, hajv orqali Solih mahdum tabiatiga xos „maqtab bo‘lmaydigan“ xususiyatlarni batafsil ko‘rsatadi. Bunday xususiyatlarning ichki va tashqi ijtimoiy ildizlarini ham ochadi. Ayni paytda Mahdumning „hamma nuqsonlarini yuvib ketarlik“ fazilatini ham ta’kidlaydi: „nima bo‘lganda ham mahdum o‘z zamonasining eng oldingi domlalaridan, Qo‘qon aksariyatining savodxon bo‘lishlariga sababchi ustozlardan“. Solih mahdumning topish-tutishi yomon bo‘lmasa-da, ancha xasis ekani, ichi qoralik, hasadgo'ylik ham unga begona emasligi yoritiladi. Fikrning asoslanishi uchun adib qo‘llagan satirik priyomlar - ustidagi

choponining kiyilaverganidan rangi o'chib, qirq yomoq bo'lib ketgani, har qishda faqat yengini almashtirib kiyishi, uyida qozon ostirmasdan, o'quvchilar olib kelgan maza-bemaza yovg'onlarni tanovul qilishga majbur etishi, ayni paytda boshqa maktabdorlarning boyroq talabalarini o'z maktabiga tortishga urinishdagi g'ayrliklari nazardan o'tkaziladi.

Anvar xarakteri haqida fikr yuritadigan bo'sak uning mantig'iga e'tibor qaratish muhim, ba'zi o'rinlarda Otabek bilan qiyoslasa bo'ladi. Uning kamtarin yigit ekani, Solih Maxdum eshigida asrandi sifatida ta'lim olishi, iste'dodli va qobiliyatli bo'lsada, uning jamoatchilikda ko'z-ko'z qilavermasligi, hatto uni mirzaboshi qilib tayinlashmoqchi bo'lishganda ham o'zini bu mansabga munosib, deb bilmadi, chunki u yosh bo'lishiga qaramay O'rdada bir necha yil oddiy mirzo bo'lib ishlab vaziyatni, muhit oqimini, odamlararo ziddiyatni to'la anglab yetgan va mirzaboshi bo'lib tayinlansa hasadgo'ylik illatlari ishga tushishini aniq his qilardi. Ilm bora tegdoshlarida ancha aqilli bo'lishiga qaramay, davr va muhit qurboni bo'ladi.

Anvar xarakteridagi sustkashlik, o'z baxti uchun kurashmaslik Ra'noni harakatga soladi. Ra'no obrazi haqida yozuvchi ayollarni o'sha davrda ha juda ilmlil va ma'rifatli ekanini shu obraz orqali yoritib bergan. Ra'noning 17 yoshga kirganida juda ko'plab kitoblarni o'qib tugatgan va savodli qiz ekani va xatto Anvardan ham aqilli ilm sohibi shuningdek o'ziga xos jasorati keng yoritib berilgan. Asarda Ra'no jasoratini uch-to'rt kundan beri bedarak ketgan Anvarga xat yozib, uyga taklif etishida va u kelganda ma'lum bir fikr alishuvdan keyin yonidagi tugundan kiyimlarni erkakcha libolarni olib kiyadi va o'spirin yigitga aylanib, ikkalasi uydan chiqib ketishadi. Ra'noning jasorati tufayli ular baxt sari qat'iy qadam qo'yishadi. Ra'no o'sha davrda hammaning ham jasorat qila olmagan ishga ya'ni o'z baxti uchun kurashishga harakat qilgan.

Xulosa

Mehrobdan chayon" romanidagi Solih mahdum, Anvar va Rano obrazlari asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim o'rin tutadi. Solih mahdum o'zining manfaati yo'lida har qanday pastkashlikka tayyor bo'lgan, zamonidagi jaholat va nodonlikni ifodalovchi obraz sifatida ko'rsatiladi. Anvar esa buning aksi — ma'rifatga intilgan,

haqgo'y, zamonaviy fikrli yosh avlod timsoli bo'lib, romanning ijobiy g'oyalarini yetkazuvchi markaziy qahramon sifatida gavdalanadi. Rano obrazi esa jamiyatdagi ayol taqdiri, uning pokligi, sadoqati va jasorati tasvirlanangan. Asarda insonning haqiqiy qadrini bilish, ma'rifatni ulug'lash, zulm va jaholatga qarshi kurash g'oyasi yorqin namoyon bo'ladi. Ularning xarakteri, qilmishlari va taqdirlari jamiyatning turli qatlamlarini aks ettiradi hamda o'quvchini adolat, vijdon va ma'rifat haqida chuqur mushohada qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talin. -T.: 2006
2. Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. -T.: 2009
3. www.ziyouz.com – Abdulla Qodiriy asarlarining elektron kutubxonasi